



## BUXGALTERIYA HISOBI FANINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Yusufali Imombayevich Moloshov

To'raqo'rg'on Agrotexnologiyalari texnikumi  
maxsus fan o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17720059>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 23-noyabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 26-noyabr 2025 yil

### KEYWORDS

*buxgalteriya hisobi, xo'jalik jarayoni, hisob va hisob siyosati, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, AKT, kompetensiya, innovatsion ta'lim.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, interfaol metodlarning o'quv jarayoniga ta'siri, AKT vositalarining amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim sharoitida bu fan bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, fan o'qitilishining an'anaviy usullaridan farqli ravishda innovatsion yondashuvlar qo'llanilganda erishiladigan natijalar ilmiy asoslangan holda yoritilgan..*

Globalashuv jarayonlari, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, xalqaro va milliy standartlarning yangilanib borishi buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida ustuvor ekanligi ta'kidlangan va ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va turlari, ta'limni boshqaruv tizimi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining haq-huquqlari, vazifalari, ta'limni moliyalash tartiblari belgilab berilgan. Hozirgi davrda ta'lim jarayonida o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, ularda mustaqil fikrlash, analiz qilish, moliyaviy hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bois buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasida professional ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas'uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta'limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o'qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi. Noan'anaviy darslarni tashkil

etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Yangi pedagogik texnologiyalar, avvalo, o'quvchi faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, ularga o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Interfaol metodlar, muammoli yondashuv, elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va buxgalteriya dasturlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ta'lim sifatini tubdan yaxshilaydi.

**Buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilishining nazariy asoslari** Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

**1. Faollik tamoyili** – o'quvchi ma'lumotni tayyor shaklda emas, balki o'z izlanishi orqali egallaydi.

**2. Amaliy yo'naltirilganlik** – o'quvchilar real buxgalteriya hujjatlari bilan ishlaydi.

**3. Moslashuvchanlik** – pedagogik metodlar o'quvchining bilim darajasi va qiziqishiga ko'ra tanlanadi.

**4. Axborot texnologiyalariga integratsiya** – kompyuter dasturlari, elektron manbalar orqali o'qitish.

Buxgalteriya hisobi – nazariy va amaliy jihatdan murakkab bo'lgan fan. Shuning uchun uni an'anaviy ma'ruzalar orqali o'qitish o'quvchilar uchun yetarli bo'lmaydi. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun yangi texnologiyalar zarur. Interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning o'zaro muloqotini kuchaytiradi, ularda tahliliy fikrlashni shakllantiradi. Quyida buxgalteriya fanida eng samarali metodlar tahlil qilinadi. **Case-study (amaliy vaziyatlar)** Case-study metodi real korxonalaridagi moliyaviy holatlar asosida tuzilgan vaziyatlar orqali o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblash, debitor qarzlarni tahlili, schyotlar rejasiga asosan jurnal yozuvlarini tuzish kabi topshiriqlar o'quvchida amaliy tajriba hosil qiladi. **Rol o'ynash texnologiyasi** "Buxgalter – auditor – soliq inspektori" rollari bo'yicha tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning hujjatlar bilan ishlash, ularni tekshirish, xatolarni aniqlash ko'nikmasini oshiradi.

**Guruhli munozara va aqliy hujum** Bu metod buxgalteriya hisobida uchraydigan muammolarni hal qilish uchun jamoaviy fikrlashni shakllantiradi. Masalan, xarajatlar tasnifi, hujjat aylanishi yoki balans moddalarini bo'yicha muhokamalar samarali natija beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda eng muhim innovatsion vositalardan biridir.

**Buxgalteriya dasturlarida ishlash** – "1C: Buxgalteriya", "ERP", "Moliya" kabi dasturlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi o'quvchilarni korxonalaridagi haqiqiy ish jarayoniga tayyorlaydi. Bu orqali ular quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- hujjatlarni elektron tarzda rasmiylashtirish;
- balans tuzish;
- hisob-kitoblarni avtomatlashtirish;
- moliyaviy hisobotlarni shakllantirish.

### **Videodarslar va virtual treninglar**

Real operatsiyalar qanday bajarilishini videoda ko'rsatish o'quvchilar uchun tushunishni osonlashtiradi. Virtual auditoriyalarda ko'rgazmali misollar yordamida dars samaradorligi oshadi.

### **Muammoli o'qitish texnologiyasining o'rni**

Muammoli ta'lim o'quvchini izlanishga undaydi, unda tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, "Amortizatsiya noto'g'ri hisoblangan. Uni qanday tuzatish kerak?" kabi muammoli vaziyatlar o'quvchini chuqur o'ylashga majbur qiladi. Bu metod o'quvchilarning amaliy masalalarni hal qilish malakasini mustahkamlaydi.

Innovatsion ta'lim natijasida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- buxgalteriya hujjatlari bilan ishlash;
- schyotlar rejasini amalda qo'llash;
- moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tuzish;
- iqtisodiy tahlil olib borish;
- AKT bilan ishlash ko'nikmasi;
- jamoada ishlash va mas'uliyat bilan yondashish.

Bu kompetensiyalar bo'lajak buxgalterning kasbiy malakasini shakllantiradi.

### **Xulosa**

Buxgalteriya hisobi fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar, AKT vositalari, muammoli ta'lim, case-study va rolli o'yinlar o'quvchilarni faol, mustaqil va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllantiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bunday yondashuvlar nafaqat o'qitish jarayonini modernizatsiya qiladi, balki mehnat bozorining talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
- 2.SH.M.Mirziyoyev "Tanqidid y tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent 2017, 45-bet.
- 3.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun 2020 yil 23-sentabr
4. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi/ Toshkent; "Sharq", 1997 yil
- 5.O'.Muxamedov, M.H.Usmanboev, S.S.Rustamov., Ta'limni tashkil etishda interfaol metodlar: O'quv-uslubiy tavsiyalar -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,2016.- 4 bet